

Sonlardagi sehr.

Bugungi kunning o'quvchisi har bir darsda yangilik bo'lishini hohlaydi. Dars davomida o'quvchi faolligi oshsa, dars samarali yakun topadi, u bugungi darsdan mamnun bo'ladi. Matematika darsida esa biz sonlar ustida amallar bajaramiz. Qadimdan biz 3 va mo'jizali 7 sonlari xaqida ertaklar, rivoyatlar, tabiat mo'jizalari va xodisalari haqida ma'lumotga egamiz.

Bugun biz sizga oxirgi raqami 1 soni bilan tugaydigan sonlarni kvadratga ko'tarishni, o'zim izlanishlar natijasida yaratgan antiqa usuli bilan tanishasiz.

1-usul:

Kvadratga ko'tarilayotgan sonni quyidagicha ko'rinishda yozib olamiz. 21 sonini $A=2$; $B=1$, 91 sonini $A=9$; $B=1$, 131 sonini $A=13$; $B=1$ va ularni quyidagicha o'zimiz yaratgan formula bo'yicha hisoblaymiz.

$$(10xA)^2+B^2+20xA$$

Misol: 21^2

Berilishi: $A=2$; $B=1$

Yechimi: $(10xA)^2+B^2+20xA=(10x2)^2+1^2+20x2=441$

Misol: 91^2

Berilishi: $A=9$; $B=1$

Yechimi: $(10xA)^2+B^2+20xA=(10x9)^2+1^2+20x9=8281$

Misol: 131^2

Berilishi: $A=13$; $B=1$

Yechimi: $(10xA)^2+B^2+20xA=(10x13)^2+1^2+20x13=17161$

2-usul:

Bu usulda 81 soni kvadratga ko'tarilsin, bunda $a=8$; $b=1$ deb olinadi va quyidagi formula buyicha bajaramiz.

$$\begin{array}{r} ab \\ x \\ ab \\ \hline a^2xb^2 \end{array}$$

bunda x soni $a+a$ ga teng, agar yig'indi 10 sonidan oshsa dildagi son a^2 ga qo'shiladi.

$$\begin{array}{r} 81 \\ x \\ 81 \\ \hline 6561 \end{array}$$

Misolda $b^2=1$, $a^2=64$, $a+a=8+8=16$ yig'indidagi 1 soni $a^2+1=64+1=65$ deb yoziladi.

*Zafar Umirov Qashqadaryo viloyati
Shahrisabz tuman 7-maktab
matematika fani o'qituvchisi*